

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIGA KREATIV FIKRLASH ASOSIDA TAYYORLASH

Botirova Jumagul Chori qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi (Boshlang'ich ta'lim) magistranti

jumagulbotirova96@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-2123-9552>

Ilmiy rahbar: Bazarov Sobirjon Bektashovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti dekani

Annotatsiya. Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligi fanlari o'quvchining nutqiy rivoji, matnni anglash, fikrni yozma va og'zaki ifodalash, muloqot madaniyati hamda intellektual faoliyatining tayanch poydevorini belgilaydi. Zamonaviy ta'lim siyosati kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirar ekan, boshlang'ich sinflarda kreativ fikrlashni darsga tayyorlash (rejalashtirish) jarayonining markaziy didaktik sharti sifatida qarash zarurati ortmoqda. Xususan, Xalqaro baholashlar o'qish savodxonligini tizimli takomillashtirishni talab etadi. kreativ fikrlashga yo'naltirilgan tayyorgarlik o'qish savodxonligi va nutqiy kompetensiyani bir vaqtda rivojlantirishi, dars samaradorligini oshirishi hamda kompetensiyaviy talablar bilan metodik moslikni ta'minlashi ushbu maqolamizda asoslandi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili va o'qish savodxonligi, kreativ fikrlash, dars dizayni, divergent fikrlash, matnni anglash, ijodiy yozuv, metakognisiya, baholash rubrikasi, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация. В статье обоснована необходимость подготовки уроков по предмету «Родной язык и читательская грамотность» в начальной школе на основе креативного мышления. Предложена дидактико-методическая модель и критерии оценивания. Показано, что ориентация на креативное мышление повышает качество понимания текста, развивает письменную и устную речь и обеспечивает соответствие компетентностным требованиям.

Ключевые слова: начальная школа, родной язык, читательская грамотность, креативное мышление, дизайн урока, дивергентные задания, творческое письмо, рефлексия, рубрика.

Abstract. This paper substantiates the need to design primary "Mother Tongue and Reading Literacy" lessons through creative thinking. A four-block instructional

model is proposed alongside an assessment rubric. The approach is argued to strengthen reading comprehension strategies, oral/written expression, and alignment with competency-based curricula and international assessment expectations.

Keywords: primary education, mother tongue, reading literacy, creative thinking, lesson design, divergent tasks, creative writing, reflection, rubric.

KIRISH

Boshlang'ich ta'limda "ona tili va o'qish savodxonligi" fanining markaziy vazifasi - bolada nutqiy faoliyatning barcha turlarini (*tinglash, gapirish, o'qish, yozish*) uyg'un rivojlantirish, matn bilan ishlash madaniyatini shakllantirish, fikrni aniq ifoda etishga olib kelishdir. Bugungi ta'lim siyosatida bu vazifa faqat savod chiqarish yoki grammatik me'yorni o'zlashtirish doirasida cheklanib qolmaydi; u funksional savodxonlik, ma'noni tushunish va ijodiy yechim topish salohiyati bilan bog'liq. Xalqaro baholash tendensiyalarida ham aynan shu nuqta ustuvor: PIRLS-2021 natijalarida O'zbekistonning o'qish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 437 ball ekani (shkala markaz nuqtasi 500) o'qishni tushunish va ma'no yaratish kompetensiyalarini tizimli quvvatlash zarurligini ko'rsatadi. Shu bois boshlang'ich sinf darslarini **kreativ fikrlash** asosida tayyorlash - metodik moda emas, balki o'quv natijalarini barqaror ko'tarishga xizmat qiluvchi didaktik zaruratdir.

Kreativ fikrlashni ta'lim mazmuniga joylashtirishda muhim jihat - uni "rasm chizish" yoki "hikoya to'qish" bilan tor ma'noda tenglashtirmaslik. PISA doirasida kreativ fikrlash o'quvchining turli va original g'oyalar ishlab chiqish, g'oyalarni baholash hamda takomillashtirish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Bu jarayon ochiq javobli muloqot va muammo yechish vazifalarida namoyon bo'ladi. Demak, kreativlik - kognitiv jarayon; u nutq materialini qayta tashkil etish, ma'no qurish, dalil keltirish, alternativ yechim taklif qilish, matnni qayta yozish yoki yangi janrda ifoda etish kabi amaliy harakatlarda ko'rinadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini kreativ fikrlash asosida loyihalashning nazariy-metodik asoslarini ochib berish, kreativlikni uyg'otuvchi kognitiv topshiriqlar tizimini taklif etish va natijani baholash mezonlarini ishlab chiqishdir.

Tadqiqot ob'ekti - boshlang'ich sinfda til-nutq ta'limi jarayoni, **predmeti esa** - dars dizaynida kreativ fikrlashni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik texnologiyalar, kognitiv strategiyalar va baholash vositalari.

Ilmiy yangilik sifatida:


- a) “o‘qish - tushunish - qayta ifoda - yaratish” zanjiriga tayanadigan kognitiv-metodik model;
- b) kreativ topshiriqlarning janr va ko‘nikmaga mos matritsasi;
- c) formativ baholash uchun rubrik-me‘yorlar paketi taklif etiladi.

Amaliy ahamiyati - tayyor dars konstruktori, topshiriq shablonlari va mezonlar o‘qituvchining rejalashtirish vaqtini tejab, natijaga yo‘naltirilgan ta’limni kuchaytiradi.

ASOSIY QISM

Darsni kreativ fikrlash asosida tayyorlash, avvalo, “o‘qituvchi nima aytadi?” emas, “o‘quvchi qanday fikrlaydi va qanday mahsulot yaratadi?” degan savoldan boshlanadi. Bunda kognitiv texnologiyalar deganda axborotni qabul qilish, qayta ishlash, umumlashtirish, tasniflash, dalillash va refleksiya qilishni tizimli tashkil etuvchi didaktik usullar majmuasi tushuniladi. Milliy pedagogikada pedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim jarayonini maqsad, mazmun, metod va natija birligida loyihalash sifatida izohlanib, o‘quv faoliyatini kafolatlangan natijaga olib boruvchi algoritm va shartlar tizimi bilan bog‘lanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini kreativ fikrlash asosida tayyorlash deganda, o‘quv materialini “ko‘paytirish” yoki mashqlar sonini oshirish emas, balki bolaning ma’no yaratish qobiliyatini markazga qo‘ygan holda dars dizaynni qayta qurish nazarda tutiladi. Bu yondashuvda til qoidalari, imlo, nutq me‘yorlari va matn ustida ishlash texnologiyalari o‘z-o‘zicha maqsadga aylanmaydi; ular fikrni qurish, pozitsiyani dalillash, muloqotda ta’sirchan ifoda topish va anglangan mazmunni yangi shaklda qayta tashkil etishga xizmat qiladi.



1-rasm. Ona tili va o'qish savodxonligi darslariga kreativ fikrlash

Boshlang'ich yoshdagi o'quvchi uchun ijodkorlik tabiiy holat - u atrof-olamni tasavvur orqali qabul qiladi, so'zlar bilan obraz tuzadi, his-tuyg'u bilan ma'noni bog'laydi. Agar darsda shu tabiiy kognitiv resurs to'g'ri yo'naltirilsa, o'qish tushunish darajasi, nutqiy faollik, lug'at zaxirasi va fikrning mantiqiy izchilligi bir vaqtning o'zida o'sadi; aks holda esa o'quvchi "to'g'ri javob topish" gagina o'rganib, matndan mustaqil xulosa chiqarish, o'z fikrini himoya qilish, o'zgaruvchan vaziyatda til vositasini tanlashda qiynaladi.

Kreativ fikrlashni ona tili va o'qish savodxonligi mazmuniga integratsiya qilishning ilmiy asosi - fikrlash amallarining til bilan ajralmas bog'lanishidir. Til faqat muloqot quroli emas, u tafakkurni tashkil etuvchi tizim hamdir. Bolaning "men tushundim" degan holati ko'pincha "men qayta ayta oldim", "men boshqacha bayon qildim", "men o'z misolimni keltirdim" kabi nutqiy harakatlar orqali isbotlanadi. Shu bois o'qituvchi darsni rejalar ekan, avvalo kognitiv maqsadni belgilashi kerak, bu darsda o'quvchi qanday aqliy operatsiyani bajaradi - taqqoslaydimi, umumlashtiradimi, sabab-oqibatni tuzadimi, dalil tanlaydimi, baholaydimi, tahrir qiladimi? Kreativ fikrlash aynan shu operatsiyalarning "variant ishlab chiqish + baholash + yaxshilash" zanjirida birlashgan ko'rinishidir. Demak, kreativlik - erkin fantaziya emas, u boshqariladigan, rejalashtiriladigan, natijasi ko'rinadigan va baholash mezonlariga ega bo'lgan intellektual faoliyatdir.

Darsga tayyorgarlikning birinchi strategik nuqtasi - natijani mahsulotga aylantirish. Boshlang'ich sinfda har bir darsda kamida bitta "ko'rinadigan mahsulot" chiqishi kerak. Sarlavha variantlari, matnning qisqa annotatsiyasi, personaj kundaligi, dialog ssenariysi, "bir abzas - ikki uslub" qayta yozish, mental xarita, sabab-oqibat zanjiri, hikoyaning muqobil yakunlari, 5-6 gapli mikromatn, maqol-matal bilan asoslangan xulosa. Mahsulot bolaning fikrini moddiylashtiradi: u keyin uni ko'radi, taqqoslaydi, qayta ishlaydi, baholaydi. Mahsulotsiz darsda esa o'quvchi faol ishtirok etganday ko'rinsa-da, fikr izi mustahkamlanmasligi mumkin. Shuning uchun kreativ rejalashda "men nima o'rgataman?" savoli bilan bir qatorda "o'quvchi nima yaratadi?" savoli ham asosiy mezon bo'ladi.

Ikkinchi nuqta - topshiriqni kognitiv qiyinchilik darajasiga ko'ra bosqichlash. Boshlang'ich sinfda kreativ vazifa birdaniga "katta ijod" shaklida berilsa, ko'p bola toqatsizlik yoki xavotir his qiladi: nimadan boshlashni bilmay qoladi, natijada ijodiy ish faqat kuchli o'quvchilargagina "ishlaydi". Shuning uchun tayanch mexanizmi majburiy, avval namuna ko'rsatish, keyin yarim-namuna, so'ng mustaqil ish. Masalan, matnning sarlavhasini topishda avval o'qituvchi 2 misol beradi va nima uchun o'sha sarlavha mosligini qisqa izohlaydi; keyin sinf 3 ta kalit so'zdan sarlavha yasaydi; oxirida har o'quvchi o'z sarlavhasini ishlab chiqadi va bir jumlada asoslaydi. Shu tartibda "variant" ko'payadi, "asos" paydo bo'ladi, "tanlash" madaniyati shakllanadi. Bosqichlashni grammatikada ham qo'llash mumkin: qoida aytilgandan keyin emas, qoidaga olib keladigan misollar tizimi orqali "kashf qilish" ssenariysi bilan ham kreativ fikrlash uyg'onadi, chunki o'quvchi tayyor ta'rifni emas, namunadan qonuniyatni topishni bajaradi.

Uchinchi nuqta - matn bilan ishlashni transformatsiyaga olib chiqish. An'anaviy amaliyotda ko'pincha matnni o'qish, savollarga javob berish, so'z ma'nosini tushuntirish bilan cheklaniladi. Bu bosqichlar zarur, ammo ular kreativ fikrlash uchun faqat tayyorgarlik hisoblanadi. Asosiy qiymat matnni qayta tashkil qilishda, ya'ni janrni o'zgartirish, nuqtai nazarni almashtirish, tushirib qoldirilgan bo'lakni to'ldirish, emotsional tonni o'zgartirish, sarlavha va kalit gaplar orqali qayta qurish. Bunday transformatsiya o'quvchini "so'zlarni o'qish"dan "ma'noni boshqarish"ga olib o'tadi. Qolaversa, transformatsiya nutq me'yorini ham tabiiy ravishda talab qiladi, kimdir matnni dialog qilib qayta yozmoqchi bo'lsa, murojaat shakllari, so'rov va iltimos konstruksiyalari, ajratib yozish, dialog tire qoidalari o'z-o'zidan ishga tushadi.

To'rtinchi nuqta - kreativ fikrlashni dalil madaniyati bilan birlashtirish. Boshlang'ich sinfda dalil deganda katta ilmiy isbot emas, matndagi bir ibora, bir jumla, voqea ketma-ketligi yoki personaj harakatiga tayanib aytiladigan "nega shunday deb o'yladim" degan asos tushuniladi. Kreativ vazifalarda "asossiz fantaziya"ni cheklash uchun oddiy qoida joriy etiladi, har bir variant kamida bitta matniy ishora bilan quvvatlansin. Masalan, o'quvchi hikoyaning oxirini boshqacha tugatdi - u "men shuni tanladim, chunki qahramon avval... qilgan, demak keyin..." kabi bir jumlada dalil keltiradi. Shu yo'sinda bola matnga tayanishni, fikrni tartibga solishni, mulohazani qonuniyat bilan bog'lashni o'rganadi. Bu esa keyingi sinflarda esse, bayon, insho, tahlil, himoya nutqi uchun muhim intellektual asos bo'ladi.

Beshinchi nuqta - formativ baholash orqali kreativlikni "ko'rinadigan" qilish. Kreativ fikrlash ko'pincha "chiroyli ish" yoki "taassurot" bilan baholanib qoladi, bunday holatda o'quvchi nimaga o'sishi kerakligini anglamaydi, o'qituvchi esa baholashda sub'ektivlikka tushib qoladi. Shuning uchun rubrika kerak: 3-4 mezon, har biri uchun 0-1-2 (yoki 1-2-3) daraja. Mezonlar sodda va kuzatiluvchan bo'lishi shart: variantlar soni, mazmunga moslik, dalil keltirish, til tozaligi, tahrir qilish. Rubrika kreativlikni cheklamaydi, aksincha, u erkinlikni tartibga soladi. O'quvchi "men ko'proq variant bersam ballim oshadi", "dalil keltirsam ishonchli chiqadi", "xatoni tuzatsam natija yaxshilanadi" degan ishchi tushunchaga ega bo'ladi. Ayniqsa, qayta ishlashga ball berilishi muhim: kreativ fikrlashning yuqori bosqichi - g'oyani yaxshilash, qiyin nuqtani qayta qurish, mazmunni aniqlashtirishdir.

Oltinchi nuqta - differentsiatsiya va inklyuzivlik. Bir sinfda o'quvchilar til zaxirasi, o'qish tezligi, diqqat barqarorligi, nutqiy faolligi bo'yicha turlicha. Kreativ metodikada bu tafovutni "kamchilik" deb emas, ta'limni individuallashtirish imkoniyati deb ko'rish kerak. Shuning uchun bir vazifaning kamida uch darajali varianti tayyorlanadi: **minimal** (tayanch bilan), **standart** (mustaqil), **kengaytirilgan**

(qo‘shimcha shart bilan). Bunday differentsiatsiya sinfda adolat tuyg‘usini saqlaydi: har kim o‘z quvvatiga mos qiyinchilikda muvaffaqiyatga yetadi, biroq barcha bir maqsadga xizmat qiladigan kognitiv harakatni bajaradi.

Yettinchi nuqta - muloqot dizayni. Kreativ fikrlash ko‘pincha yakka faoliyatday ko‘rinadi, amalda esa u hamkorlikda tezroq o‘sadi. Bolalar bir-biridan g‘oya oladi, taqqoslaydi, tanlaydi, yaxshilaydi. Lekin hamkorlik “shovqin”ga aylanib ketmasligi uchun muloqot qoidalari zarur: navbat bilan gapirish, fikrni masxara qilmaslik, “mening fikrimcha...” kabi odob formulalaridan foydalanish, sabab keltirish, boshqasining fikrini qisqacha qaytarib berish (“sen aytdingki...”), tanqidni taklifga aylantirish (“yaxshilash uchun...”). Bu qoidalar ona tili fanining kommunikativ vazifalari bilan uzviy uyg‘un: o‘quvchi nafaqat matnni, balki muloqotni ham “madaniy matn” sifatida boshqaradi. Darsda juftlikda tahrir qilish, kichik guruhda 3 ta variant ishlab chiqish, “galereya aylanmasi” kabi shakllar kreativ mahsulot sifati va nutqiy madaniyatni bir vaqtda ko‘taradi.

Sakkizinchi nuqta - raqamli vositalardan ma‘no uchun foydalanish. Boshlang‘ich sinfda raqamli texnologiya kreativlikni “tayyor dizayn” bilan almashtirmasligi kerak, aksincha, u fikrni ko‘rish, tartiblash va taqdim qilishni yengillashtirishi maqsadga muvofiq. Masalan, mental xarita shabloni, so‘z buluti, interaktiv savollar, audio-hikoya yozish, rasmga qaray turib matn tuzish kabi kichik vositalar ishchi xotirani tejaydi va bolaning diqqatini mazmunga qaratgan holda ushlab turadi. Shu bilan birga, raqamli ishdan keyin albatta verballashtirish talab etiladi: “nega shu variantni tanlading?”, “qaysi so‘zni nega qo‘llading?”, “qanday tuzatding?” kabi savollar kreativ harakatni onglilashtiradi.

To‘qqizinchi nuqta - o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi. Kreativ fikrlashga asoslangan darsni tayyorlash o‘qituvchidan “tekst mutaxassisi” bo‘lishni talab qiladi, matnni pedagogik resurs sifatida ko‘ra bilish, undan maqsadga mos topshiriqlar chiqarish, matnning til birliklari va ma‘no qatlamlarini ajratish, o‘quvchida paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni oldindan bashorat qilish. Ikkinchi kompetensiya - savol qo‘yish mahoratidir: savollar faqat “nimani?” emas, “nega?” va “qanday?”ni qamrashi, bolani fikrlashga majbur qilishi, biroq qo‘rqitmasligi kerak. Uchinchi kompetensiya - baholash madaniyati: rubrika, chek-list, portfolio, o‘z-o‘zini baholashni tashkil qilish va fikr-mulohazani rag‘batlantiruvchi shaklda berish. To‘rtinchi kompetensiya - differentsiatsiya va inklyuziv yondashuv: bir vazifani turli quvvatdagi bolaga moslash, barchani jarayonga kiritish, har birining muvaffaqiyatini ko‘rsatish.

O'ninchi nuqta - amaliyotga joriy etish uchun izchil sikl. Kreativ metodika bir haftalik aksiya bo'lib qolmasligi, darslar zanjiriga aylanishi shart. Izchil sikl quyidagi ko'rinishda ishlaydi:

- 1) ma'lumot va namuna;
- 2) tayanch bilan mashq;
- 3) mustaqil kreativ mahsulot;
- 4) rubrik bo'yicha baholash;
- 5) qayta ishlash;
- 6) taqdimot;
- 7) refleksiya;
- 8) keyingi darsda yangi vazifaga transfer.

Shunda o'quvchi kreativlikni "bir martagi ilhom" emas, mehnat va fikrlash intizomi ekanini tushunadi. Bu tushuncha boshlang'ich sinfda shakllansa, keyingi bosqichlarda mustaqil ta'lim, tadqiqot, loyiha, chiqish va yozma ishlar sifati keskin yaxshilanadi.


Kreativ fikrlashga asoslangan tayyorgarlikni yanada ilmiylashtirish uchun o'qituvchida kichik monitoring mexanizm bo'lishi kerak: bir xil formatdagi topshiriqlar davriy qo'llanadi, natija rubrik bo'yicha yig'iladi, dinamika kuzatiladi. Masalan, har ikki haftada bir marta "sarlavha + annotatsiya + dalil" mini-kompleksi beriladi; o'quvchi portfoliosida saqlanadi; o'qituvchi umumiy tendensiyani ko'radi: kimda variant ko'payapti, kimda til xatolari kamayapti, kim dalil keltirishda o'sayapti. Bu monitoring o'qituvchining metodik qarorlariga asos beradi: qaysi topshiriq turi yaxshi ishlayapti, qaysi yo'nalishda tayanchni kuchaytirish kerak, qaysi bolaga individual yordam zarur.

Shu tarzda, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini kreativ fikrlash asosida tayyorlash - mazmun, topshiriq, muloqot, baholash va refleksiyaning bir butun kognitiv tizim sifatida tashkil etish demakdir. Bu tizim o'quvchini tayyor qolipdagi javobdan chiqarib, ma'no yaratuvchi sub'ektga aylantiradi: u o'qiydi, anglaydi, qayta tashkil etadi, tanlaydi, dalillaydi, tahrir qiladi va yangi variant taklif etadi. Eng muhimi, bu jarayon nutqiy madaniyatni kuchaytiradi, chunki kreativlik faqat g'oya emas, uning aniq, me'yoriy va ishonchli ifoda topishidir; shu bilan u savodxonlikning yuqori bosqichiga xizmat qiladi va boshlang'ich ta'limning strategik maqsadlarini amaliy natijaga aylantiradi.

Darsga kreativ tayyorgarlik o'qituvchi uchun ham muayyan professional standartlarni talab qiladi. Birinchidan, didaktik dizayn kompetensiyasi: maqsad-faoliyat-natija-baholash zanjirini bir xil mantiqqa keltirish. Ikkinchidan, matn tanlash

madaniyati: yosh psixologiyasiga mos, til jihatdan ishlanadigan, ma'no jihatdan bahsga sabab bo'ladigan parchalarni saralash. Uchinchidan, topshiriqlarni differentsiatsiya qilish: bir sinfdagi tayyorgarlik darajalari farqli bo'ladi; shuning uchun "minimum-standart-kengaytirilgan" variantlar tayyorlanadi.

Bu jarayon grammatikani "qoida yodlash"dan "ma'no yaratish"ga aylantiradi. O'qish savodxonligi komponentida esa kreativ savollar texnologiyasi ishlaydi, "Agar..." savollari, "Qahramonning boshqa yo'li bormi?", "Muallif nimani yashirdi?", "Matndan dalil topib, fikringni himoya qil" kabi topshiriqlar o'quvchini matnga qayta-qayta murojaat qilishga majbur qiladi; bu esa anglash chuqurligini oshiradi.



2-rasm. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qishsavodxonligi darslariga kreativ fikrlash asosida tayyorlash

Baholash masalasi kreativ fikrlashni darsga tayyorlashda eng ko'p xatoga yo'l qo'yiladigan nuqtadir: kreativ ish "erkin" deb, mezonisiz qoldirilsa, u tartibsizlashadi; faqat "to'g'ri-xato" bilan baholansa, kreativlik o'chadi. Shuning uchun boshlang'ich bosqich uchun qisqa rubrika taklif etiladi (3 daraja, 5 mezon).

Mezonlar:

- 1) originallik,
- 2) moslik,
- 3) tafsilot,
- 4) til me'yorlari,

5) bog'liqlik.

Yuqori daraja: kamida 2 muqobil g'oya, dalil bilan asos, 2-3 tafsilot, matn leksikadan maqsadli foydalanish, mantiqiy izchillik.

O'rta daraja: 1 asosiy g'oya + 1 variant, qisqa asos, tafsilot kam, ayrim til xatolari, umumiy izchillik saqlangan.

Boshlang'ich daraja: g'oya takrori yoki juda umumiy, asos yo'q, til xatosi ko'p, bog'liqlik sust.

Amaliy tavsiya sifatida quyidagi qoidalar ustuvor deb qaraladi:

- 1) har darsda kamida bitta yaratuvchan mahsulot;
- 2) kreativ topshiriq "variant ishlab chiqish + baholash/takomillashtirish"ni birlashtirsin;
- 3) rubrik va o'z-o'zini baholash bilan fikrlash ko'rinadigan qilib qo'yilsin;
- 4) differentsiatsiya: bir matn - turli qiyinlikdagi ijodiy vazifalar;
- 5) metodik monitoring: portfolio va dinamika.

Shu tarzda kreativ fikrlashga asoslangan tayyorgarlik boshlang'ich bosqichning eng muhim natijasi - "o'quvchi o'qiydi, tushunadi, qayta ifoda etadi va yangi ma'no yaratadi" kompetensiyasini barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini kreativ fikrlash asosida tayyorlash - o'quvchining o'qishni tushunish, nutqiy ifoda, dalillash, tahrir qilish va metakognitiv nazorat qobiliyatlarini bir vaqtning o'zida rivojlantiruvchi kompleks metodik yechimdir.

Kreativlikni "qo'shimcha bezak" sifatida emas, kognitiv amallarning uyushgan zanjiri sifatida talqin qilish dars dizaynini aniqlashtiradi: maqsad-topshiriq-mahsulot-baholash izchilligi ta'minlanadi.

PIRLS kabi xalqaro o'lchovlarda qayd etilayotgan natijalardan kelib chiqib, o'qish savodxonligini kuchaytirish uchun matn bilan ishlashni faqat reproduktiv savol-javob bilan cheklamasdan, alternativ ssenariy, sarlavha, qayta ifoda, personaj nuqtai nazarini almashtirish, matn xaritasi, dalil asosida baholash kabi kognitiv-kreativ vazifalar bilan boyitish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. - 160 b.

2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: NOSHIR, 2009. - 352 b.
3. Azimova I.A. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi: 1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 128 b.
4. Mavlonova K. va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi: 1–2-qism (1-sinf uchun darslik). - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 104 b.
5. Ishmuxamedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. - Toshkent: RBIMM, 2008. - 68 b.
6. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: "Nihol" nashriyoti, 2013.
7. To'lipova J.O. Pedagogik texnologiyalar - do'stona muhit yaratish omili. - Toshkent: YuNISEF, 2005.
8. Pozilov H. Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish savodxonligini o'qitishda noan'anaviy yondashuvlar. - "Ijodkor o'qituvchi" jurnali to'plami, 2022.